



## O'QITISH JARAYONIDA INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH MUAMMOLAR YECHIMINI ANIQLOVCHI FUNKTSIONAL TIZIM

<sup>1</sup>Ahmedov Muhammadjon Mamadalievich

O'zbekiston. FarDU "Texnologik ta'lim" kafedrası dotsenti,

<sup>2</sup>Madaminova Mavjuda Erkinovna

FarDU "Texnologik ta'lim" kafedrası magistri,

<sup>3</sup>Alimardon Yo'ldashev

ToshDPU Professional ta'lim fakulteti talabasi.

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.7901904>

### ARTICLE INFO

Received: 28<sup>th</sup> April 2023

Accepted: 05<sup>th</sup> May 2023

Online: 06<sup>th</sup> May 2023

### KEY WORDS

*Texnologik ta'lim, texnologik jarayon, kasbiy maxorat, pedagogik jarayon, pedagogik tizim, boshqaruv faoliyati, boshqaruv mexanizmi, yahlit mexanizm, integratsion jarayon, integratsion tizim, funktsional tizim.*

### ABSTRACT

*Maqolada texnologik ta'lim jarayonlarini tashkil etish va o'qituvchining boshqaruv faoliyati mexanizmini takomillashtirish jarayonini yahlit mexanizm va undagi o'zaro bog'liklik va aloqadorlikni esa integratsion jarayon sifatida o'rganildi. Shuningdek, texnologik ta'lim jarayonini tashkil etishda innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish (o'quv-texnikaviy vositalar, dars shakllari va metodlar) muammolarning yechimini aniqlovchi bir butun funktsional tizim paydo bo'lishi jarayoni tahlil etildi.*

**Mavzuning dolzarbligi.** Ta'limi tizimida faoliyat ko'rsatuvchi mutahassisga qo'yiladigan talablar mavjud jamiyatda amalga oshirilayotgan islohot talablariga to'la mos kelishi, halq ho'jaligida yuzaga kelgan raqobatga bardosh va jamiyatda yuz beradigan kutilmagan o'zgarishlarga zudlik bilan moslashuvchi, shuningdek, kasblar bozorida mutaxassislar malakasiga qo'yilayotgan talablarga javob beruvchi, samarali faoliyat yurita oladigan pedagog hodimni tayyorlash shu kunning asosiy muammolaridan biridir.

**Kirish.** Bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda pedagogik faoliyat yurituvchi mutaxassislarga qo'yiladigan qo'yiladigan talablarni amalga oshirish jarayonida quyidagi kamchiliklar yaqqol ko'zga tashlanadi. Ular quyidagilar:

- metodik faoliyatning turli yo'nalishlarida talabalarining faol ta'lim olish shakllariga bo'lgan ehtiyoji;
- bo'lajak o'qituvchilarini metodik nuqtai nazardan shakllantirishda o'quv rejalarini fan bloklarida, bloklararo va predmet doirasida integratsiyalash;
- metodik faoliyatni tashkil etish jarayonida o'quvchilarni kompetentlik darajasini shakllantiruvchi omillarning yetarli emasligi kabi kamchiliklar mavjud. SHu bois bo'lajak fan o'qituvchisining metodik kompetentligini shakllantirishda, oliy ta'lim muassasalari talabalarining metodik va individual hususiyatlarini ya'ni, shaxsiy kamolotini rivojlantirish yo'llarini takomillashtirish uchun zarur pedagogik shart-sharoitlar yaratish ta'lim tizimidagi muammoga bo'lgan ehtiyoji dolzarbdir.

Mazkur muammolarni bartaraf etish uchun fan o'qituvchisi metodik kompetentligini shakllantirishning ilmiy-pedagogik asoslarini ishlab chiqish, psixologik- pedagogik



sharoitlarini aniqlash va o'qituvchining metodik kompetentligi shakllanganlik darajasini aniqlovchi mezonlarini ishlab chiqish va uni asoslash muhim ahamiyatga ega.

Ta'lim tizimining umumiy o'rta ta'lim maktablari bo'g'inida umumta'lim fanlari o'qituvchilarining salohiyati, iqtidori, ijodkorligi va pedagogik mahorati, provord natijada esa ularning kompetentlik darajasi muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, umumta'lim fanlari modullari tarkibidagi mavzulari mazmunining integratsiyasini o'rganish, ularning o'zaro aloqadorlik darajasini tahlil qilish ta'lim tizimining o'rganishi lozim bo'lgan asosiy vazifasi va dolzarb muammosidir.

Ma'lumki, bir qator olimlar tomonidan uzluksiz ta'lim tizimida tashkil etiladigan pedagogik jarayonlar, ularning o'ziga xos xususiyatlari, ularni tashkil etish va boshqarish faoliyatidagi zamonaviy yondashuvlar, ta'lim jarayonlari samaradorligi, pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishning funktsiya va metodlari, shuningdek, ta'lim muassasasi oldiga qo'yilgan maqsadlarga erishishda rahbarlar va professor-o'qituvchilar tomonidan pedagogik jarayonlarni takomillashtirish, pedagogik jarayon sub'ektlari faoliyatini muvofiqlashtirish va ularning refleksiv faoliyatini tashkil etish asosida ta'lim samaradorligini oshirish yo'nalishidagi vazifalar yoritilgan/1-3/.

Yuqorida bayon qilingan vazifalardan quyidagicha hulosa qilish mumkinki, tizimli yondashuv qoidalariga ko'ra yaxlitlik uning qismlari yig'indisidan ko'ra kattaroq tushuncha bo'lib, qismlar tabiatini belgilaydi, qismlarni esa ularning yaxlitligidan ajratilgan holda o'rganib bo'lmaydi. Qismlar esa doimiy o'zaro aloqada va o'zaro bog'liqlikda bo'ladi. "Tizim" deb atalishi mumkin bo'lgan ob'ektlarga quyiladigan talablar sifatida mazkur qoidalarni e'tiborga olsak, o'qituvchining metodik mustaqilligini shakllantirish tizimida ushbu sifat o'qituvchi shaxsining integrativ sifati hisoblanib, u shaxsni yaxlitlik sifatida ifoda etadi. Demak, uning qismlari ham tizimli rivojlanish tavsifiga ega bo'ladi.

**Metodologiyasi.** Texnologiya fanining integrativ mazmunga ega ekanligi o'z navbatida texnologiya fani o'qituvchisi shaxsiy xislatlarining ko'p qirraliligi, kasbiy sifatlarining turli ko'rinishda namoyon bo'lishiga olib keladi. Demak, bo'lajak o'qituvchida metodik moslashuvchanlikni shakllantirish tizimi kerakli tarbiyaviy vositalar va faoliyat turlari, ular faoliyatni tashkil etish shakllari, metodlaridan foydalanib, vazifaning o'ziga xos to'plamlarini hal etuvchi funktsional tizim deb aytish mumkin.

Bunday tizimning faoliyat ko'rsatishning maqsadi, mavjud sharoitlarda bo'lajak o'qituvchi shaxsining asosiy yo'naltiruvchi sifati bo'lgan metodik mustaqillikni imkon qadar rivojlantirishdan iborat bo'ladi.

Ko'zlangan tizimning aytib o'tilgan har bir tashkil etuvchisi amalda maqsadli yondashish asosida o'qituvchining metodik moslashuvchanligini tarbiyalash yo'llarini, ularni amalga oshirish shakllarini aks ettiradi.

Mazkur vazifalarni amalga oshirishda fan o'qituvchisining umumta'lim fanlari modullari mavzularining integratsiyasini tahlil eta olish salohiyati, pedagogik mahorati, boshqaruv faoliyati va bevosita pedagogik moslashuvchanlik qobiliyatini shakllanganlik darajasiga ega bo'lishi muhim ahamiyatga ega. Ushbuni e'tiborga olsak, texnologik ta'lim jarayonlarini tashkil etish va o'qituvchining boshqaruv faoliyati mehanizmini takomillashtirish jarayonini **yahlit mexanizm** sifatida qarash mumkin.



U holda mazkur mexanizmni tushintirishda tizimli yondashuv muhitiga e'tiborni qaratish zarurati paydo bo'ladi. Chunki, texnologik ta'lim jarayonlarini tashkil etish va boshqaruv faoliyati mexanizmini takomillashtirishni tahlil qilishdan oldin, uni yaxlit mexanizm sifatida qarash va uning aks ettiruvchi alohida muhim belgilarini va tarkibiy qismlarini chuqurroq o'rganish kerak bo'ladi.

Shu nuqtai nazardan, texnologik ta'lim jarayonlarini tashkil etish va o'qituvchining boshqaruv faoliyati mexanizmini takomillashtirish jarayonini yahlit mexanizm sifatida qaraydigan bo'lsak, u holda tizimli yondashuvning quyidagi asosiy qoidalarni e'tiborga olish zarurati paydo bo'ladi. Ular:

- yaxlitlik, bu tashkil etuvchi qismlari yig'indisidan iborat bo'lib, ularning hususiyatini belgilaydi;

- tashkil etuvchi qismlarni yaxlit mexanizmdan ajratilgan holda o'rganib bo'lmaydi, chunki yaxlit mexanizmlarni tashkil etuvchi qismlari bir-biri bilan doimo o'zaro aloqada va bog'liqlikda mavjud bo'ladi.

Yuqoridagi fikrlardan shunday hulosaga kelish mumkinki, tashkil etilgan texnologik ta'lim jarayonini tashkil etish va boshqaruv faoliyati mexanizmini takomillashtirishni yahlit mexanizm sifatida va undagi o'zaro bog'liklik va aloqadorlikni esa **integratsion jarayon** deb qarash mumkin.

Integratsion jarayon ya'ni mavzularning o'zaro aloqadorlik va bog'liklik jihatlarini hisobga olib, tizimli yondashuvning asosiy qoidalarini e'tiborga olsak, texnologik ta'lim jarayonini tashkil etish va boshqarish faoliyati mexanizmining takomillashishida o'qituvchi shaxsining **integrativ sifati**, jumladan kompetentlilik darajasi asosiy vazifani bajaradi.

Demak, texnologik ta'lim jarayonini tashkil etuvchi qismlarining o'zaro bog'liqligi va aloqadorligi integrativ xarakteriga ega bo'ladi va tizimli rivojlanish tendentsiyasini o'zida namoyon etadi deb fikr yuritish mumkin.

Texnologik ta'lim jarayonlarini tashkil etish va boshqaruv faoliyati mexanizmini takomillashtirishda o'qituvchining integrativ sifati ham rivojlanib boradi, bu esa o'z navbatida texnologiya fani o'qituvchisi shaxsiy xislatlarining ko'p qirraliligi, kasbiy sifatlarining turli ko'rinishda namoyon bo'lishiga olib keladi/4-6/.

Natijada o'qituvchida salohiyat, iqtidor, ijodkorlik va pedagogik mahorat kabi qobiliyatlarga ega bo'lgan yetuk mutaxassis sifatidagi faoliyati, uning muhim xususiyatlari va kasbiy sifatlarini shakllanishiga qaratilgan qator tizimlar faoliyatini o'rganish zaruriyati paydo bo'ladi. Ushbu tizimlarning har biri alohida amalga oshirilmay, balki bir butun o'quv-tarbiyaviy jarayonga yahlit mexanizm deb qarasaq, u holda texnologik ta'lim jarayonini tashkil etishda o'quv-texnikaviy vositalar, dars shakllari va metodlaridan foydalanib muammolarning yechimini aniqlovchi yahlit "funktSIONAL tizim" paydo bo'ladi.

Bu tizimning faoliyat ko'rsatishdan maqsadi, texnologik ta'lim jarayonini tashkil etishda o'qituvchi shaxsining pedagogik moslashuvchanligi va integrativ sifatlari rivojlanib borishi barobarida o'quvchilarning bilim darajasi ortib boradi va o'z navbatida o'quv muassasasining ta'lim-tarbiya samaradorligi yanada yuqori darajaga ko'tariladi. Shuningdek, ko'zda tutilayotgan tizimning yaxlitligi, uning moslashuvchanligi bilan ham ta'minlanadi, ya'ni tarkibiy qismlariga motivatsion, mazmunli-operatsion va emotsional-irodaviy nuqtai



nazardan funktsional tizim quyidagicha tarkibiy qismlarga ega bo'ladi degan fikrga kelish mumkin[7-10].

Taklif etilayotgan **funktsional tizimning birinchi tarkibiy qismi**, texnologik ta'lim jarayonini tashkil etishda o'qituvchining shahsiy hususiyati va kasbiy mahoratini namoyish etishdagi motivatsion qismi bo'lib, yanada yuksak darajadagi kasbiy motivlarni o'zlashtirish va takomillashtirishga yo'naltirilgan bo'lishi lozim.

*Tizimning ikkinchi tarkibiy qismi*, texnologik ta'lim jarayonini tashkil etishda o'qituvchining pedagogik moslashuvchanligi sifati-operatsion tashkiliy qobiliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lib, u quyidagi ikki vazifani bajaradi. Birinchisi texnologik ta'lim jarayonini tashkil etish orqali o'qitish shakllari, vositalari hamda metodlari yordamida mavzuni tartiblashtiradi, ikkinchisi faqat predmetga tegishli emas, balki boshqa fanlarning mavzusiga ham tadbiiq etish mumkin.

*Uchinchi tarkibiy qismi* esa asosan o'qituvchining pedagogik moslashuvchanligidagi emotsional-irodaviy qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan. Bunda turli pedagogik vaziyatlarda katta ma'suliyat hissi bilan mustaqil qaror qabul qilish va amalga oshirishga tayyorgarlik faoliyatlarida rivojlanib boradi.

**Xulosa.** Yuqoridagi fikrlardan quyidagicha hulosa qilish mumkinki, texnologik ta'lim jarayonlarini tashkil etish va boshqaruv faoliyati mexanizmini takomillashtirish yahlit mexanizm sifatida va tashkil etuvchi qismlarni o'zaro bog'liklik va aloqadorligi bois integrativ xarakteriga ega bo'ladi.

Demak, dars jarayonida foydalaniladigan ta'lim vositalari, dars shakllari va metodlaridan foydalanib muammolarning yechimini aniqlovchi bir butun funktsional tizim shakllantirish mumkin.

Shakllangan funktsional tizim esa texnologik ta'lim jarayonlarni tashkil etishda o'qituvchining metodik kompetentligi, integratsion sifati va kompetentlik darajasining paydo bo'lishi ijodiy emotsional muhitini shakllantiradi. Bu esa o'qituvchining bilim sifati va ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligi yanada yuqori darajaga ko'taruvchi omil sifatida aks etadi.

## References:

1. S.T.Turg'unov, L.A.Maxsudova, M.A.Umaraliev, H.M.Tojiboeva //Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish texnologiyalari: o'quv qo'llanma /. "Sano-standart" nashriyoti 2012 yil.
2. R.X.Djuraev, S.T.Turg'unov, N.Q.Axmedova //Ta'lim boshqaruvi (nazariya va amaliyot masalalari): o'quv qo'llanma /. Toshkent 2013 yil.
3. R.X.Djuraev, S.T.Turg'unov.//Ta'lim menejmenti: qo'llanma / Toshkent "Voris - Nashriyot" nashriyoti 2006 yil.
4. Axmedov M.M.,Teshaboev Z.A.,Xojikarimova G.T. //He hed an innovative character in the teaching process «Distance education» is an innovative course format// LOGOS Multidisziplinare forschung: perspektiven, problem und muste. 10 April 2021.Wien, Reepublik Osterreich.
5. Axmedov M.M., Xojikarimova G.T., Safarova G.M. //Pedagogical skill is the product of the individual characteristics of the teacher// JOURNALNX s. Vol. 7 No. 02 (2021): 237-240.



6. **Akhmedov Mukhammadjon Mamadalyevich, Xodjekarimova Gulasal Tadjalyevna, Boybabayev Ravshan Khasanboyevich, Safarova Gulorakhon Makhmadyevna** //Fundamentals Of Development Of Creative Abilities Of Students In Professional Training// The American Journal of Applied sciences. Volume03Issue01-2021. 54-57.
7. М.М.Ахмедов, З.А.Тешабоев, Г.Т.Хожикаримова //Education system - integrated process// International Journal of Early Childhood Special Education (INT-JECSE) ISSN: 1308-5581 Vol 14, Issue 03 2022. 4211-4214.
8. М.М.Ahmedov, Z.A.Teshaboev "Innovatsion ta'limda dars shakli, metodi va vositalarini tanlash" nomli o'quv qo'llanma//O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Intelektual mulk agentligi "Intelektual mulk konsultativ markaz"ning 22 yil 17 maydagi № 0047888 raqamli guvohnomasi bilan mualliflik huquqi ob'ekti sifatida ruyhatga olingan.
9. М.М.Akhmedov, S.M.Rozimatova, Z.A.Teshaboev //AN IMPORTANT FACTOR FOR IMPROVING THE EDUCATIONAL PROCESS ON THE PRINCIPLE OF "LIFELONG LEARNING"// GALAXY INTERNATIONAL INTERDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL (GIIRJ). Vol. 10, Issue 10, Oct. (2022). 671-676 pages.
10. М.М.Ahmedov //Development factors of competence lvl of teacher of technologic// INNOVATIVE TECHNOLOGICA METHODOLOGICAL RESEARCH JOURNAL. Volume 4, Issue 3 Mar. 2023. 104-112 pages.
11. М.М.Ahmedov, Z.Teshaboev, G.Xojikarimova. /Таълим тизимida islohatlar// Mejdunarodnyy nauchnyy jurnal "Graal nauki" № 4 (Traveny, 9 aprely 2021) Venetsiya, Italiya S.475-477
12. М.М.Ахмедов, С.М.Рўзиматова, А.Йўлдашев //ТЕХНОЛОГИК ТАЪЛИМ ЖАРАЁНЛАРИНИ БОШҚАРИШНИНГ ПЕДАГОГИК ТИЗИМИ СИФАТИДА ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ// International Journal of Education, Social Science & Humanities. FARS Publishers. Volume-11| Issue-2| 2023. 661-667 pages.
13. М.М.Ахмедов, З.Тешабоев Г.Хожикаримова //Ёшларни касб-хунарга йўналтириш// Международный научный журнал «Вестник науки» опубликована № 11 (44). Г.Тольятти от 7 ноября 2021 г.
14. Р.Ҳ.Мақсудов, С.М.Отажонов, М.М.Ахмедов, Ш.Ш.Шухратов, Г.Т.Хожикаримова //Иновацион таълимда дарс шакли, методи ва воситаларини танлаш// Ўқув қўлланма. Фаргона 2022.
15. М.М.Ахмедов, С.М.Рўзиматова, З.А.Тешабоев //“ҲАЁТ ДАВОМИДА ЎҚИШ” ТАМОЙИЛИ АСОСИДА МАВЗУ “ИННОВАЦИОН ИШЛАНМАСИ”НИ ТАЙЁРЛАШ МЕТОДИ// О‘ЗБЕКISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI. 19.10.2022 12-SON 668-674 betlar.
16. М.М.Ахмедов, Г.Т.Хожикаримова //Ўқитишнинг сифати ва таълим-тарбия самарадорлигини оширишда инновацион характерга эга бўлган инновацион дарс шаклларида фойдаланиш// Общество и инновации. 2021 2(2) 1-7
17. М.М.Ахмедов, И.И.Каримов, С.М.Рўзиматова //ДАРС ЖАРАЁНИДА ИННОВАЦИОН ЁНДАШУВ МУНОСАБАТЛАРИНИ АМАЛАГА ОШИРИШ ОМИЛЛАРИ// О‘ЗБЕКISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI. 19.10.2022 12-SON 56-60 betlar.



18. М.М.Аҳмедов, З.Тешабоев Г.Хожикаримова С.М.Рўзиматова. //Технологик таълим жараёнларини ташкил этиш ва бошқариш механизмини такомиллаштириш механизмини такомиллаштиришнинг илмий-методик асослари// Международный научный журнал. ORIENTAL RENAISSANCE: Innoralirc, ceducational, natural andsocial sciences. Volume 2 ISSUE 8. August 2022. стр.336-342.
19. М.М.Ахмедов, Во'таева Gulmira Voxodirjonovna //ТЕХНОЛОГИЯ FANIDA TEXNOLOGIK JARAYONLARNI TASHKIL ETISH VA BOSHQARISH// O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI. 19.10.2022 12-SON 745-750 betlar.
20. Parpieva O.R, Hojkarimova G.T, Nazirova A.M //FORMATION OF STUDENT PEDAGOGICAL SKILLS BASED ON THE REQUIREMENTS OF INNOVATIVE EDUCATIONAL ENVIRONMENT// Международном научно-практическом журнале "Экономика и социум". Вып №6(85) 2021. 157-161стр.
21. Odinaxon Raxmanovna Parpiyeva, A.Ruzimatova //CREDIT-MODULE SYSTEM OF EDUCATION// O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI. 20.08.2022 yil. 10-SON. 83-87 betlar
22. Odinaxon Raxmanovna Parpiyeva, Ro.,zimatova Arofatzon Maxmudjon qizi //TA'LIM OLUVCHILARNI FANLARNI O„ZLASHTIRISHGA QIZIQTIRISH USULLARI// IJODKOR O'QITUVCHI JURNALI. 5 OKTYABR / 2022 YIL / 22 – SON. 226-230 betlar
23. Odinaxon Raxmanovna Parpiyeva, Melikuzieva Zulhumor Sherqozi qizi, Abdullaeva Umidahon Uktamjon qizi //INNOVATIVE EDUCATIONAL TECHNOLOGIES, THEIR NATURE, TYPES AND THEORETICAL FUNDAMENTALS// Texas Journal of Multidisciplinary Studies. Vol. 9. 06-2022. 123-126 page.
24. Odinaxon Raxmanovna Parpiyeva, Odinaxon Odilovna Djalalidinova //Tibbiy ta'limda interfaol usullardan foydalanish// Международный научный журнал «Новости образования: исследование в XXI веке» № 3 (100), часть 1. сентябрь, 2022 г 565-569.
25. Парпиева Одинахон Рахмановна, Раззоқов Бахтиёр Хабибуллаевич //ИННОВАЦИОН ТАЪЛИМ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИНИНГ ТУРЛАРИ ВА НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ// Международный научный журнал «Научный импульс». No5(100), часть 2. Декабрь, 2022. 204-210 стр.
26. М.М. Ahmedov, S.M. Ruzimatova, A.YU.Yoldashev //Organization of Technological Educational Processes and Using the Method of "Integration Strategy" in Improving the Management System// Journal of Pedagogical Inventions and Practices. Volume 19. 06-04-2023. 1-6 pages.
27. М.М.АХМЕДОВ, С.М.РЎЗИМАТОВА, А.Ю.ЙЎЛДАШЕВ //ТЕХНОЛОГИЯ ФАНИ МАКТАБ ЎҚУВЧИЛАРИДА ТЕХНОЛОГИК КОМПЕТЕНЦИЯЛАРНИ ШАКЛЛАНТИРИШНИНГ ТАЯНЧ ВОСИТАСИ СИФАТИДА// PEDAGOGICAL SCIENCES AND TEACHING METHODS: a collection scientific works of the International scientific conference (17 April, 2023) - Copenhagen. Part 22. 15-20 pages.